

TIL O‘RGATISHDA TINGLAB TUSHUNISH KO‘NIKMASINING AHAMIYATI VA UNING SHAKLLANTIRISH BOSQICHLARI

Ro‘ziqulova Sevinch Abror qizi

ToshDO‘TAU Ona tili ta’limi fakulteti, 3-kurs

Maknuna835@gmail.com +998773720

Annotatsiya: Ushbu maqolada maktab darsliklarida tinglab tushunish ko‘nikmalarini rivojlantirishning ahamiyati, metodlari va yondashuvlari tahlil qilinadi. Maqolada tinglab tushunishni shakllantirish uchun takrorlash mashqlari, sinonim va antonim so‘zlar ustida ishlash, shuningdek, xorijiy mamlakatlardagi samarali metodlar haqida ham so‘z boradi. Rivojlangan davlatlar tajribasiga murojaat qilinib, tinglab tushunish ko‘nikmalarini mustahkamlashda faol eshitish, tanqidiy fikrlash va mustaqil tahlil qilish ko‘nikmalarining muhimligi ko‘rsatib o‘tiladi. Shu bilan birga, o‘zbek tilidagi tinglab tushunish jarayonida uchraydigan asosiy muammolar va ularni bartaraf etish yo‘llari yoritilgan.

Kalit so‘zlar. Tinglab tushunish ko‘nikmasi, metodlar, til o‘rganish jarayoni, kommunikativ ko‘nikmalar, fonetik aniqlik, diqqatni jamlash, audio materiallar, interaktiv metodlar, leksik boyitish, samarali ta’lim usullari, faol eshitish, tanqidiy fikrlash, mustaqil tahlil, ilg‘or tajribalar, ta’limda innovatsiyalar, o‘zbek tilidagi qiyinchiliklar, pedagogik yechimlar.

Annotation: This article analyzes the importance, methods, and approaches to developing listening comprehension skills in school textbooks. It discusses repetition exercises, working with synonyms and antonyms, as well as effective methods used in foreign countries to enhance listening comprehension. Referring to the experience of developed countries, the article highlights the significance of active listening, critical thinking, and independent analysis in strengthening listening skills. Additionally, it addresses the main problems encountered in the process of listening comprehension in the Uzbek language and suggests ways to overcome them.

Keywords: Listening comprehension skills, methods, language learning process, communicative skills, phonetic accuracy, concentration, audio materials, interactive methods, vocabulary enrichment, effective teaching methods, active listening, critical thinking, independent analysis, advanced practices, innovations in education, challenges in the Uzbek language, pedagogical solutions.

Bugungi kunda to‘rtta ko‘nikmalarni rivojlantirish bo‘yicha ko‘plab ishlar olib borilmoqda, darslik qo‘llanmalar va bir necha o‘quv materiallar yaratilmoqda. Bu borada, ko‘plab olimlar ilmiy ishlar qilishgan. Jumladan, Gulshan Asilova Maktab

darsliklarida tinglab tushunish ko‘nikmalarini rivojlantirish juda ham muhim omil hisoblanadi. Tinglab tushunish til o‘rganishda eng murakkab ko‘nikmalardan biri hisoblanadi. Bu jarayonda o‘rganuvchi nafaqat so‘zlarning ma’nosini anglab yetishi, balki ular orasidagi bog‘lanishlarni, gaplarning umumiy mazmunini tushunishi kerak. U tinglab tushunish haqida shunday deydi: “Tinglab tushunishni rivojlantirish uchun autentik audio materiallardan foydalanish muhimdir, chunki ular o‘rganuvchiga haqiqiy nutqning xususiyatlarini o‘rgatadi va nutq madaniyatini shakllantiradi.”¹ Negaki, til o‘rganish jarayonida eshitish orqali o‘rganish va amaliy jarayonlarda qo‘llasdh juda keng ahamiyat kasb etadi. Hattoki, u o‘zining ona tili bo‘lsa ham bu ko‘nikmasiz tilning grammatik jarayonlarini va nozik xususiyatlarini o‘rgana olmaydi. Tinglab tushunish ko‘nikmasi adabiy til me’yorlarini chuqurroq o‘rganishda, yurtimizning barcha hududlaridagi sheva elementlarini farqlashga yordam beradi. Tinglab tushunish topshiriqlarini bajarish jarayonida diqqali bo‘lishni va yozma savodxonlik kabi ko‘nikmalarni ham anchagina rivojlantiradi. Topshiriqlar o‘quvchi uchun tezkorlikda fikrlash va mantidiy, tanqidiy fikrlash kabi ko‘nikmalarni ham sezilarli darajada oshiradi. Ushbu maqolada, maktab darsliklarida qanday tinglab tushunish topshiriqlari mavjudligi va yondashuvlar borligi, ularning turlari haqida kengroq ma’lumot berilib, tinglash ko‘nikmalarini qanday oshirish haqida ham tavsiyalar beriladi.

Amaliy kuzatishlar shuni ko‘rsatmoqdaki, hatto o‘zbek tili ona tili bo‘lgan o‘quvchilarning o‘zida ham tinglab tushunish jarayonida turli muammolar uchraydi. Eng asosiy muammolardan biri — o‘quvchilarning fonetik jihatdan so‘zlarni noto‘g‘ri talaffuz qilishi va talaffuzdagi farqlarni farqlay olmasligidir. Masalan, “o” bilan “u”, “e” bilan “i”, “h” bilan “x” tovushlari orasidagi farqlarni to‘g‘ri anglay olmaslik, matnni noto‘g‘ri tushunishga olib keladi. Bu holat ayniqsa murakkab matnlar, badiiy ifodalar yoki ilmiy nutqlarda yaqqol ko‘zga tashlanmoqda. Tinglab tushunish ko‘nikmasini shakllantirishda dastlabki bosqichda to‘g‘ri talaffuz qoidalarini o‘rgatish muhim hisoblanadi. O‘quvchilar orasida fonetik savodxonlikni shakllantirish uchun takrorlash mashqlari, diqqat va xotira mashqlari, tovushlar va urg‘u bilan bog‘liq amaliy topshiriqlar joriy qilinishi kerak. Ayniqsa, sinonim va antonim so‘zlar ustida ishlash, matnlardagi hazil va mutoyibalarni ilg‘ay olish, ilmiy iboralarni anglab olish orqali o‘quvchining mantiqiy fikrlash darajasi ortadi. Tinglab tushunish faqat fonetik bilimlar bilan cheklanmaydi. Bu jarayonda o‘quvchining mantiqiy tafakkuri, tasavvur qilish qobiliyati, e’tiborini jamlash darajasi, eshitilgan matnni muayyan kontekstda anglay olishi va asosiy g‘oyani ajrata olishi ham muhim ahamiyatga ega. Misol uchun, badiiy matn tinglanganda o‘quvchi unda tasvirlangan joy, odamlar, holatlarni ko‘z oldiga keltira olishi, tasavvur orqali kontekstni to‘liq anglay olishi zarur. Bu esa o‘z

¹ Asilova G. Tinglab tushunish ko‘nikmalarini rivojlantirishda autentik materiallarning o‘rni, Toshkent, 2023, №4, B. 45–52.

navbatida o‘quvchining tili, tafakkuri va emotsional idrokini rivojlantiradi. Masalan, Yaponiyada o‘quvchilarga qisqa ilmiy yoki badiiy matnlarni tinglatib, ularni og‘zaki ravishda qayta hikoya qilish, voqealarni rasmga aylantirish, eshitgan voqealar asosida dramatik sahnalar yaratish kabi topshiriqlar keng qo‘llaniladi. Bu usullar o‘quvchilarni diqqatli bo‘lishga, eshtilgan matnni qayta ishlashga, mantiqiy tahlil qilishga o‘rgatadi. Shuningdek, bu orqali xotira va tezkor fikrlash qobiliyati ham mustahkamlanadi. Ayniqsa, o‘zbekona tag ma’no anglash – bu xalqimizga xos bo‘lgan nozik fahm-farosatni, donishmandlikni va zukkolikni ifodalaydi. Bu jarayonda diqqatni jamlay olish, asosiy g‘oyani ajrata bilish va mantiqiy xulosa chiqarish muhim o‘rin tutadi. Tanqidiy fikrlash esa o‘z fikriga ega bo‘lish, har qanday axborotni shubha bilan emas, balki tahlil orqali baholashdir.

Rasm yoki jadval asosida eshtilgan matnni tahlil qilish: Bu multimodal fikrlashni rivojlantiradi. Yondashuvlar va topshiriqlar har doim o‘quvchilarning yoshiga, qiziqishiga va til darajasiga mos bo‘lishi zarur. Shu bilan birga ular amaliy hayotga bog‘langan, real hayotdagi nutq namunalariga asoslangan bo‘lishi kerak. Bugungi kunda axborot texnologiyalarisiz zamonaviy ta’limni tasavvur qilish qiyin. Ayniqsa ona tilida tinglab tushunishni o‘rgatishda zamonaviy texnologiyalar ulkan imkoniyatlar yaratadi. Bu texnologiyalar orqali o‘quvchilar real nutqni tinglaydi, interaktiv mashqlar bajaradi, audiovizual materiallar orqali bilimni chuqurlashtiradi.

Tinglab tushunish materiallari odatda audiomatnlar, dialoglar, suhbatlar, ma’ruzalar, intervyular, hikoya yoki ertaklar shaklida bo‘ladi. Bu materiallar o‘quvchining yoshiga, til darajasiga va dars mavzusiga qarab tanlanadi. Ularning samaradorligi ularning **davomiyligi, eshitish tezligi, talaffuz sifati va mazmuniy to‘liqligiga** bog‘liq. Xalqaro tinglab tushunish ko‘nikmasini baholash tizimini ko‘radigan bo‘lsak, unda shunday talablar mavjud.

Xalqaro standartlar (CEFR, IELTS, TOEFL) asosida Xalqaro miqyosda til o‘rgatishda keng qo‘llaniladigan standartlardan biri bu **CEFR (Common European Framework of Reference for Languages)** hisoblanadi. Bu tizimda tinglab tushunish materiallari foydalanuvchi darajasiga qarab ajratiladi:

1. **A1–A2** daraja uchun tinglov materiallari 1–2 daqiqa davom etadi, talaffuz aniq va sekin bo‘lishi kerak. Tezlik 90–110 so‘z/minut atrofida bo‘ladi.
2. **B1–B2** daraja uchun esa materiallar 3–5 daqiqagacha cho‘ziladi, tezlik esa 120–150 so‘z/minut bo‘ladi.
3. **C1–C2** daraja materiallari 5–10 daqiqa davom etishi mumkin, tezlik esa real hayotga yaqin bo‘lib, 160–180 so‘z/minutni tashkil etadi.
4. **IELTS** imtihonining Listening bo‘limida 4 ta bo‘lim bo‘lib, har bir bo‘lim 7–9 daqiqa davom etadi. Umumiy audio material 30 daqiqani tashkil etadi.

Bu materiallar turli ijtimoiy vaziyatlar, akademik muhit yoki suhbat shakllarini qamrab oladi. Nutq tezligi o‘rtacha 140–160 so‘z/minut bo‘lib, talaffuz Britaniya ingliz

tiliga asoslanadi. TOEFL imtihonida esa ma’ruzalar va suhbatlar 3–5 daqiqalik segmentlardan iborat bo’lib, umumiy tinglash qismi 41–57 daqiqa davom etadi. Bu testlarda amerika ingliz tili asosida talaffuz beriladi. Ushbu xalqaro tizimlarda **audio sifati** juda muhim hisoblanadi. Materiallar studiyada yoziladi, fon shovqinlar deyarli yo’q, talaffuz toza va aniqligi yuqori darajada bo’ladi. Shuningdek, ba’zan real hayotdagi vaziyatlarni simulyatsiya qilish uchun sun’iy shovqinlar ham qo’shiladi (masalan, telefon qo’ng’irog’i, ko’chadagi shovqinlar, transport ovozi va boshqalar).²

Darsliklarda kuzatilgan ijobiy jihatlar (yutuqlar): (5-sinf darsligi misolida)

Mavzuga mos audiodarslar mavjudligi: 5-sinf darsligida berilgan tinglab tushunish topshiriqlari xalqaro standartlar asosida tuzilgan bo’lib, topshiriqlar jadvallar asosida o’quvchi yoshi va darajasi inobatga olingan holda berilgan. Rang barang jadvallar asosidagi bu topshiriqlar o’quvchini zeriktirib qo’ymaydi va ma’nodosh so’zlarni o’quvchiga anglatish, zaruriy ko’nikmalarni anglatish va til nozikliklarini anglatishga urg’u beradi. Ba’zan ushbu ma’nodosh so’zlarni farqlashda kattalar ham qiynaladi. Ko’rishimiz mumkinki, to’g’ri, noto’g’ri savol turlari ham noodatiy ko’rinishda taqdim etilgan. O’zbek tilida ko’p ishlatiladigan, ammo bolalar murakkab bo’lgan so’zlarni mazmuna anglash, tinglash jarayonida tafakkur qilish, mantiqiy va tanqidiy fikrlashga undaydi.

So’zlar tizimi

1. Muallif: “Tilshunos olimlarimiz baraka topsinlar, xaloyiqning aytgani bo’la qolsin deb lug’atlarda zimistonga “qop-qorong’i kecha” deya izoh berdilar”, – deydi. Bu yerda muallif olimlarimizni olqishlayaptimi yoki ularga kinoya qilyaptimi?

2. Audiomatda qaysi so’zni muallif “o’zimizning bolamiz” deb ataydi? Nega?

3. Muallifning bolalikda bitgan “Shabboda, to’xta birpas” degan satrini gazeta muharriri nega qizil qalam bilan to’g’rilagan? Axir bu gapda xato yo’q edi-kul Fikringizni bildiring.

29. Audiomatdan olingan gaplarda bittadan so’z ajratib ko’rsatilgan. Uning o’rniga qo’yish mumkin bo’lgan sinonimini aniqlang.

1. Bizga tanish hamma so’zlar ham biz tushungan ma’noni **anglatmaydi**.
tasdiqlamaydi bildirmaydi izohlamaydi

2. Tobaki degan so’zimiz bor. Uning qismati **ajoyib**.
tushunarsiz achinarli hayratomuz

3. Bog’iston, guliston so’zlari kabi chiroyli, yorug’ **kalima**.
so’z maskan xona

4. Avvallari uni sovrq ma’nosida to’g’ri **ishlatganmiz**.
foydalanganmiz qo’llaganmiz gapirganmiz

5. Demak, **taxminan** bir soatga teng tungi muddat – pos.
chamasi salkam qisqasi

Istak gaplar ikki muhim belgiga ega:
1. Istak-xohishni bildiradi. 2. Gap kesimi **-sa** qo’shimchasini oladi.
Masalan: Qani edi katta kutubxonam bo’lsa.
Istak gap bo’lishi uchun yuqoridagi ikki talab bajarilishi shart. “Uyga qaytishni istayman” gapining kesimida **-sa** yo’qligi uchun, “Kelsa, meni chaqiringlar” gapida esa istak mazmuni bo’lmagan uchun ular istak gap hisoblanmaydi.
Istak gaplar oxiriga nuqta qo’yiladi.

So’zlar tizimi

27. Audiomatn asosida quyidagi fikrlarning to’g’ri yoki noto’g’ri ekanini aniqlang.

to’g’ri Bog’iston, guliston so’zlari “chiroyli”, “yorug’” ma’nolarini bildiradi. noto’g’ri

to’g’ri Tilimizdagi zimiston va ruscha zima so’zlari bir-biriga “qandosh”. noto’g’ri

to’g’ri Qisqartirishga o’chilgimiz bois xunuk, zimiston so’zlari boshqa ma’nodda qo’llana boshlagan. noto’g’ri

to’g’ri Birpas so’zi bir nafas so’zining o’zgarishidan hosil bo’lgan. noto’g’ri

28. Audiomatni qayta tinglang. Qismlarga nom bering.
Kalit so’zlar

kamina, muxbir, taklif	...
tabaka	...
zimiston	...
xunuk	...
birpas	...

Quyidagi so’zlar imlosini to’g’rilang va ular ishtirokida 5 ta gap tuzing.

jurnal zinhorba-zinhor paskash Hindistontlik ustamizku
qopqorong’i egizag qovrilgan tushinavering

Turli topshiriq turlari: Matnni tinglab tushunishga oid topshiriqlar bir xil emas, bu o’quvchilarda turli usullar bilan eshitgan ma’lumotni qayta ishlashga imkon yaratadi.

Real hayotga yaqin suhbatlar: Ayrim darsliklarda real hayotdagi dialoglarga

² <https://www.britishcouncil.org/exam/ielts>

o‘xshash tinglov matnlari keltirilgan bo‘lib, bu o‘quvchilarda kommunikativ ko‘nikmalarni shakllantirishga xizmat qiladi.

Tinglab tushunish jarayonini rivojlantirish uchun tavsiyalar:

1. 1. Tayyorlov bosqichi

a) Matn yoki audio material haqida oldindan qisqacha ma’lumot berish (kontekst yaratish)

b) Muhim yangi so‘zlar va iboralarni o‘rganish.

c) Audio material mavzusi haqida savollar berish orqali e’tibor va qiziqishni oshirish.

d) Matnni 2x tezlikda eshitish, 1.5 tezlikda topshiriqni bajarish.

2. Asosiy bosqich:

a) Matnni yaxshiroq anglash uchun detal va ma’lumotlarga e’tibor berish.

b) Savollar, topshiriqlar orqali tinglangan ma’lumotni qayta ko‘rib chiqish.

C) Yangi so‘zlar va grammatik tuzilmalarni tahlil qilish..

3. Baholash va tahlil bosiqchi:

a) Tinglab tushunish natijalarini tekshirish uchun testlar va imtihonlar o‘tkazish. b) O‘quvchilar bilan birga xatolarni tahlil qilish va ularni tuzatish usullarini o‘rgatish.

Ushbu topshiriqlar o‘quvchilarning eshitish qobiliyatini rivojlantirishga, lug‘at va nutq tushunishini mustahkamlashga xizmat qilad. Kelgusida, tinglab tushunish topshiriqlarining sifati va mazmunini yanada takomillashtirish, ularni o‘quvchilarning yosh va bilim darajasiga to‘liq moslashtirish, maktablarda audio texnika bilan ta’minlash va o‘qituvchilarni ushbu ko‘nikmani o‘qitish bo‘yicha yanada malakali qilish zarur. O‘quvchi 2X tezlikda audiolarni eshitgan paytda uning fikrlashi va tushunish ko‘mikmasi rivojlanib, normal holatda tez ishlagan paytda juda katta natijalarga erishish holati kuzatiladi. Kundalik hayotda audio materiallarini ko‘proq eshitib yurish ko‘proq ma’lumot olish bilan birgalikda, diqqatli bo‘lish va tinglash ko‘nikmasini yaxshilashga yordam beradi. Har bitta tinglab tushunish topshiriqlarini bajarib bo‘lgandan so‘ng xatolar bilan ishlash uning darajasini yana ham oshirishga yordam beradi.

Xulosa qilib aytganda, tinglab tushunish topshiriqlari maktablarda til o‘rganish jarayonining ajralmas qismiga aylangan va uning ahamiyati kundan-kunga ortib bormoqda. Mavjud yutuqlarni yanada rivojlantirish va mavjud kamchiliklarni bartaraf etish orqali o‘quvchilarning eshitish qobiliyatini sezilarli darajada oshirish mumkin. Bundan tashqari, rivojlangan davlatlarda ona tilida tinglab tushunish faqat til darsining bir bo‘lagi emas, balki har bir fan bo‘yicha bilim olishning asosiy vositasi sifatida qaraladi. Bu esa o‘quvchilarning umumiy aqliy rivojlanishi, savodxonligi va shaxsiy o‘sishida hal qiluvchi ahamiyatga ega.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YHATI:

1. Asilova G. Tinglab tushunish ko‘nikmalarini rivojlantirishda autentik materiallarning o‘rni, Toshkent, 2023, №4, B. 45–52.
2. Field, J. (2008). Listening in the Language Classroom. Cambridge University Press.
3. Kasimova, M. A. (2024). Sun’iy intellekt orqali xorijiy til o‘rganuvchilarining motivatsiyasini oshirish. Foreign Languages in Uzbekistan ilmiy-metodik jurnali. <https://journal.fledu.uz/wp-content/uploads/sites/3/2024/03/malika-abduvakilovna-kasimova-metodika.pdf>
4. <https://www.britishcouncil.org/exam/ielts>
5. <https://www.coe.int/en/web/common-european-framework-reference-language>